



Durdona ABDULLAYEVA,

Magistr, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: durdonaabdullayeva770@gmail.com.

Sanobar DJURAYEVA,

Tarix fanlari doktori (DSc), katta o'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: sanobarnurmatovna@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD R.Muxammadiyev taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF CULTIVATING FINE-FIBER COTTON IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF KASHKADARYA AND SURKHANDARYA REGIONS, 1945–1990)

Annotation

After gaining national independence, the need arose to study our history, particularly the Soviet period and the events related to the so-called “cotton affair,” which had long been interpreted in a distorted and ideologically biased manner. As is well known, during the Soviet era Uzbekistan was one of the largest cotton-producing regions, supplying raw materials to the textile industry of the country. Cotton production was rapidly expanded, and new irrigated lands were brought into agricultural use. During the Soviet period, the Uzbek SSR occupied an important place in the national economy of the USSR as one of its agrarian-industrial republics. The republic's economy was largely based on agriculture and industry and held strategic significance within the overall economic system of the Soviet Union, serving as one of the main suppliers of cotton. Cotton, commonly referred to as “white gold,” was a vital raw material for industry, particularly for the light and textile sectors. By the middle of the twentieth century, Uzbekistan had become one of the leading cotton producers in the Soviet Union in terms of production volume.

ЗНАЧЕНИЕ ВЫРАЩИВАНИЯ ТОНКОВОЛОКНИСТОГО ХЛОПЧАТНИКА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКИСТАНА (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ И СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ, 1945–1990 гг.)

Аннотация

После обретения национальной независимости возникла необходимость изучения истории нашей страны, в частности советского периода и событий, связанных с так называемым «хлопковым делом», которые долгое время освещались в искажённом и идеологизированном виде. Как известно, в советский период Узбекистан являлся одним из крупнейших производителей хлопка, обеспечивая сырьём текстильную промышленность страны. Производство хлопка интенсивно развивалось, осваивались новые орошаемые земли. В составе СССР Узбекская ССР занимала важное место в народном хозяйстве как одна из аграрно-индустриальных республик Союза. Экономика республики в значительной степени опиралась на сельское хозяйство и промышленность и имела стратегическое значение в общей хозяйственной системе Советского Союза, выступая одним из основных поставщиков хлопка. Хлопок, называемый «белым золотом», являлся важнейшим сырьём для промышленности, особенно для лёгкой и текстильной отраслей. К середине XX века Узбекистан занимал одно из ведущих мест в Советском Союзе по объёмам производства хлопка.

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INGICHKA TOLALI PAXTA YETISHTIRISHNING AHAMIYATI (QASHQADARYO, SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA. 1945 – 1990 – YY.)

Annotatsiya

Milliy istiqloлга erishganimizdan so'ng, tariximizni, xususan, juda soxtalashtirib talqin etilgan sovet davri va paxta ishi bilan bog'liq bo'lgan voqealarni mafkuraviy qarashlardan holi tarzda o'rganish ehtiyoji tugildi. Barchamizga malumki, sobiq sovet davrida O'zbekiston eng yirik paxta yetishtiruvchi mintaqalaridan biri bo'lib, mamlakat to'qimachilik sanoatini xomashyo bilan ta'minlagan. Paxta yetishtirish jadal rivojlantirilib, yangi sug'oriladigan yerlar o'zlashtirilgan. O'zbekiston SSR sovet davrida Ittifoq tarkibidagi agrar-industrial respublikalardan biri sifatida mamlakat xalq xo'jaligida muhim o'rin tutgan bo'lib, respublikaning iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi va sanoatga tayanib, SSSRning umumiy xo'jalik tizimida strategik ahamiyatga ega bo'lgan holda asosiy paxta yetkazib beruvchi hududlardan biri edi. "Oq oltin" deb atalgan paxta mamlakat sanoati, ayniqsa, yengil sanoat va to'qimachilik tarmoqlari uchun muhim xomashyo hisoblangan. XX asrning o'rtalarida O'zbekiston paxta yetishtirish hajmi bo'yicha Sovet Ittifoqida yetakchi o'rinlardan birini egalladi.

Kirish. Jahonda kechayotgan globallashuv va sanoatlashuv davrida insoniyatning kundalik ehtiyojlari ortib, sifatli oziq-ovqat va kiyim-kechakka bo'lgan talabni qondirishda turli muammolar vujudga kelmoqda. Su'niy to'lla sanoat sohasiga kirib kelishiga qaramay jahon bozorida, kiyim-kechak ishlab chiqarish tizimida, iqtisodiy sohada paxta xomashyosiga talab va ehtiyoj yil sayin oshib bormoqda. Natijada, turli davlatlar o'rtasida paxta yetishtirish, yangi navlarni yaratish, ingichka tollali paxtani zamonaviy to'qimachilik talablar asosida ta'minlash, kimyoviy ishlab chiqarish

texnologiyalarini paxtachilik sohasiga kengroq jalb etish dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida paxtachilikni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari asosida sifatli, hozirgi zamonaviy sanoat talabiga javob beradigan tollalarni yaratish, iqtisodiyotni ko'tarishga amaliy yordam beradigan paxta mahsulotlarni ishlab chiqish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. "Paxtachilikda 40 foiz maydonda Xitoyda o'zini oqlagan ilg'or tajriba joriy etilmoqda". Bu sohani yanada rivojlantirish uchun paxtachilikni

yangi navlarni yaratish, bu boradagi yutuqlar, kamchiliklar, muammolarni o'rganish, paxtani dehqonchilik madaniyatimizga ta'siri, ayniqsa sovet davrida bu sohaga berilgan e'tiborni aynan maqsadlari, natijalarini hamda oqibatlarini ilmiy o'rganish asosida bugungi kunda paxtachilik sohasidagi muammolarni bartaraf etish o'z dolzarbligi bilan ajralib turibdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek xalqining ishtiroki masalasi turli davrlarda tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Mavzuga oid bo'lgan adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shu ma'lum bo'ldiki, 1945 – 2023 yillar davomida bu mavzuga oid monografiya, maqola, risola va boshqa hujjatlar o'zbek va rus tillarida chop etilgan. Lekin bu adabiyotlarning ma'lum bir qismi vaqt sinovidan o'tmagan va o'z ahamiyatini yo'qotgan. Tarixshunoslik nuqtai nazaridan bu adabiyotlarni ikki guruhga, birinchisi sobiq sho'rolar davridagi tarixiy adabiyotlarga va ikkinchisi, mustaqillik davri adabiyotlariga shartli ravishda bo'lishni lozim topdik.

Birinchi guruhga sovet sotsialistik tuzumdagi shaxslar tomonidan yozilganligi tufayli ulardagi ba'zi ma'lumotlarda xalqning paxta yetishtirish jarayonidagi mushkul vaziyatlar to'la ochib berilmagan. Ushbu shaxslarning asarlari yordamida biz bugungi kunda yurtimizda Jumladan, A.I.Shleyxer asarida ijtimoiy qatlamning barcha vakillari, jumladan maktabning eng quyi sinf o'quvchilaridan boshlab, emizikli ayollar va hatto qariyalargacha mehnatkashlar safida paxta dalalariga jalb etilgani alohida ta'kidlangan. Bu jihat paxta yakkahokimligi siyosatining real ko'rinishlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu davr mualliflari tomonidan yaratilgan tadqiqotlarda mazkur siyosatning faoliyati haqida daliliy manbalar to'plangan bo'lib, ular tarixiy jarayonni o'rganishda qimmatli material sifatida xizmat qiladi. Biroq o'sha yillarda chop etilgan aksariyat maqolalarda sovet hokimiyatining paxta siyosati asosan ijobiy ruhda talqin qilingan, tanqidiy mazmundagi tahlillarga esa deyarli duch kelinmaydi. Sovet hokimiyatining 1930-yillarda O'zbekistonda paxtachilikni taraqqiy ettirish maqsadida paxtachilikni tayanchi hisoblangan irrigatsiya tizimini rivojlantirish, cho'llar, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish sohasida amalga oshirgan ishlarini aks ettiruvchi kitob va maqolalar tahlil qilinayotgan adabiyotlar guruhini tashkil etadi. Sovet davrida janubiy hududlarda sug'orma dehqonchilik tarixi bo'yicha yaratilgan adabiyotlarning aksariyati biryoqlamaligi bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarga xos bo'lgan umumiy xususiyat shuki, bu asarlarda ko'proq mustabid tuzumning agrar siyosatini ulug'lash, mavjud kamchilik va nuqsonlarni xaspo'shlash kabi holatlar ustun turadi. Ulardan kechgan turli iqtisodiy siyosatlarining turli ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin. V.Smirnov, M.N.Rojdestvenskiy, M.M.Krilov kabi myalliflarning asarlarini qayd etish mumkin. XX asr 60-70 yillaridagi tadqiqotlarda O'zbekiston paxtachiligini paxta-sanoat kompleksi bilan bog'liq holda rivojlantirish masalalari umumiy tarzda bayon etilgan. Shu bilan birga, mazkur adabiyotlarda sovet mafkurasi ta'siri ostida O'zbekistondagi paxtachilik taraqqiyotining faqat ijobiy tomonlarigina yoritilgan.

Bu asarlar sovet hokimiyati mafkurasi ta'sirida yozilgan bo'lib, tabiiyki, qator noxolisliklar mavjud. Lekin 4 jildlik «O'zbekiston irrigatsiyasi» asari keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Sababi, unda O'zbekistondagi 1980-yillargacha bo'lgan irrigatsiya tarixi hamda yirik suv inshootlarini qurishga boshchilik qilgan mashhur irrigatorlar hayoti tadqiq etildi.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga mustaqillikka erishgandan so'ng, tariximizni xolis va haqqoniy tarzda yoritadigan asarlar nashriga tayanib, ushbu mavzuni yoritishga harakat qildik. Mustaqillik sharoitida ham birinchi guruh

adabiyotlari singari manbashunoslik, tarixshunoslik, lingivistik, arxeologik, tarixiy geografik, numizmatik yo'nalishlarda qator asarlar yaratildi. Ularda asosan tarixni haqqoniy yoritish ruhi ustunlik qilganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu guruhdagi adabiyotlar sirasiga Sh.R. Qobilov, A.N. Abdullayev, D. Avliyov, B. Jo'raqulov, B. Normurodov, D. Ziyoeva, H. Ziyoyev, X. Yo'doshev, E.A. Kabulov, A.N. Roziev, O. Soatov, S. Tursunov, S. Tursunov, X. Uzoqov, I.Y. Tursunov, M.M. Haydarov, Z.SH. Daminova, S.Sa'dullayev, R.T. Shamsutdinov asarlarini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu mavzu tarixshunosligi borasida chop etilgan ishlarni tahlil etish va ularni keng jamoatchilikka yetkazish, yoshlarni boy o'tmishimiz va tariximiz bilan tanishtirish, ularni milliy istiqloq mafkurasi ta'sirida vatanparvar va barkamol bo'lib yetishishlarida ushbu mavzuning ham o'rni beqiyos deb hisoblaymiz. Misol uchun B. Jo'raqulov ingichka tolali paxta yetishtirishning intensiv texnologiyalarini sanab o'tib, kichik bir hududdan ikki baravarida hosil olishni aytib, bunda juda ko'p miqdorda ximikatlardan foydalanishda, hosilni yig'ib olishda nihoyatda ehtiyotkor bo'lish kerakligi to'g'risida bir qancha maslahatlarni berib o'tadi. Ekin yerlarining quvvatini oshirish sotsialistik xo'jalikni yuritishning eng muhim vazifalaridan biridir. Bunga mineral va organik o'g'itlardan keng foydalanish bilangina emas, balki boshqa agroteknik qoidalarga rioya qilish, almashlab ekishni to'g'ri tashkil etish, kam hosilli paxta navlarini serhosillari bilan almashtirish, yerlarning mileorativ holatini yaxshilash, paxta yetishtirishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash bilan ham erishish mumkinligini ta'kidlaydi Respublikaning eng ko'p ingichka tolali paxta yetishtiriladigan viloyatlari hisoblangan Qashqadaryo va Surxondaryo hududlari sharoitiga ushbu paxta navini moslashtirish bo'yicha ko'plab samarali usullar B. Murodovning “Qarshi cho'li sharoitida paxta yetishtirish” va O. Jamolovning “Ingichka tolali g'oz kasalliklariga qarshi kurash choralari” nomli ilmiy ishlarida ko'zlangan asosiy maqsad yangi yerlarni o'zlashtirish texnologiyalari, hosildorlikni oshirish kabi jarayonlar yoritib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda sovet hukumatining paxtachilikni rivojlantirish siyosati va uning oqibatlarini tadqiq etish jarayonida qator nazariy yo'nalishlar va ilmiy qarashlardan foydalanish zarur hisoblanadi. Chunki ushbu masala nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari bilan, balki siyosiy, madaniy va ekologik qirralari bilan ham tarix fanining murakkab va ko'p qirrali tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda tarixiy materializm, markaz-periferiya nazariyasi, modernizatsiya va institutsional yondashuvlardan tortib, sotsial va ekologik tarix nazariyalarigacha bo'lgan ilmiy asoslar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nazariy yo'nalishlar orqali sovet hukumatining agrar siyosatidagi maqsad va vazifalari, uning amaliy natijalari hamda mahalliy jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlari, shuningdek, uzoq muddatli oqibatlarini chuqur va tizimli o'rganish imkoni paydo bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Sovet hukumatining Surxondaryoni paxta xomashyosiga aylantirish borasidagi dastlabki harakatlari, Surxondaryo viloyatida paxtachilikni rivojlantirish uchun sug'orish tizimidagi amaliy ishlar va uning natijalariga doir ma'lumotlar ilk bor umumlashtirilib, ulardan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix ta'lim yo'nalishi talabalari uchun yozilgan “O'zbekiston tarixi” hamda “O'zbekistonda yer-suv munosabatlari tarixi (qadimgi davrdan hozirgacha)” nomli darsliklarni yaratishda foydalanilgan, Surxondaryo viloyatiga boshqa mintaqalardan aholini ko'chirib keltirilish sabablari, mahalliy mutaxassislariga munosabat, qishloq xo'jalik texnikasi va yangi paxta navlarining yaratilishi, kimyoviy vositalardan foydalanishning

oqibatlarini, yer unumdorligining izdan chiqishi, sho'rlanish hamda tashlandiq yerlarning ko'payish sabablari ochib berilgan. Bundan tashqari, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida paxtachilikni rivojlantirish, klaster xo'jaliklarini tashkil etish, ekinzorlarni sug'orishda suv manbalaridan to'g'ri va samarali foydalanish, paxtachilik bilan shug'ullanadigan ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ingichka tolali paxta yetishtirish tarixiy jihatdan O'zbekiston taraqqiyotida muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, uning biryoqlama rivoji ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqargan. Kelgusida ushbu sohani barqaror rivojlantirish uchun iqtisodiy

manfaatlar bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash ustuvor vazifa bo'lib qoladi. shuni ham ta'kidlash joizki, tadqiqot davomida ingichka tolali paxta yetishtirish tizimi nafaqat agrar ishlab chiqarish sohasi, balki siyosiy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarining tarkibiy qismi sifatida shakllangani ham aniqlandi. Markazlashgan reja asosida olib borilgan paxtachilik siyosati hududlarning ixtisoslashuviga kuchli ta'sir ko'rsatib, ayrim viloyatlarda iqtisodiy faoliyatning bir yoqlama rivojlanishiga sabab bo'lgan. Bu esa hududiy muvozanatning buzilishi, oziq-ovqat ekinlari maydonlarining qisqarishi va aholi ehtiyojlarining to'liq qondirilmaligi kabi muammolarni yuzaga keltirgan.

ADABIYOTLAR

1. Қодиров С. Серкүёш ўлканинг бой хазинаси. (Қашқадарёда пахта етиштиришни янада кўпайтириш ва ўнинг таннархини арзонлаштириш резервлари). – Т.: Ўзбекистон КП МКнинг нашриёти, 1970. 29 б.
2. Ингичка тололи пахтадан юкори ҳосил олиш: (Қашқадарё область Улянов раёнидаги “Ш Интернатсионал” савҳозининг тажрибаси). – Т.: 1983. 16 б.
3. Ўзбекистон ССРда пахта етиштириш бўйича 1986 – 1990 йилларга мўлжалланган намунали технологик карталр. – Т.: 1987. 52 б.
4. Совет Иттифоки Коммунистлар партияси. Пленум. – Т.: Қизил Ўзбекистон, 1954. 52 б.
5. Ингичка тололи пахтадан юкори ҳосил олиш: (Қашқадарё область Улянов раёнидаги “Ш Интернатсионал” савҳозининг тажрибаси). – Т.: 1983. 34 б.
6. Ирригация Ўзбекистана. В 4-х томах. – Т.: 1975-1979-1981. 17 б.
7. Ўзбекистон пахтачилиги тариихдан. Т.: Фан, 1980. 45 б.
8. Кобилов Ш.Р.Пахта яккахокимлиги ва унинг ҳалокатли оқибатлари. – Тошкент.: 2015. 135 б.
9. Умаров И., ва бошқалар. Сурхон воҳасида этник тарих ва этно-маданий жараёнлар. -Б. 118.
10. Туропов Н. Сухон воҳасининг “оқ олтин” и. – Т.: Ўзбекистон, 1981. 231 б.
11. Зиёев Х.Чоризм ва пахта яккахокимлиги (1991). – Т: Шарқ юлдузи журнали, № 5-сон. 169-175 б.
12. Тухтаев А. Жарқургон. – Т.: Фан, 2008. 308 б.